

TALABALARNING MILLIY QADRIYATLARGA ASOSLANGAN DUNYOQARASHINI OSHIRISHNING TARBIVAVIY AHAMIYATI VA PEDAGOGIK TAHLILLARI

*Turemuratova A.B., Erjanova V.Q., Kubeysinova N.M.
Qoraqalpoq davlat universiteti*

Tayanch soʻzlar: taʼlim maʼnosi, dunyoqarash, talabalar, milliy qadriyatlar, pedagogik tahlil, bagʻrikenglik, madaniyatlararo tushunish, fuqarolik oʻziga xosligi, taʼlim strategiyalari.

Ключевые слова: образовательное значение, мировоззрение, студенты, национальные ценности, педагогический анализ, толерантность, межкультурное взаимопонимание, гражданская идентичность, образовательные стратегии.

Key words: educational significance, worldview, students, national values, pedagogical analysis, tolerance, intercultural understanding, civic identity, educational strategies.

Kirish. Sharq allomalarining ilmiy merosida shaxsning kamolotga yetishi, sogʻlom shakllanishi, unga toʻgʻri taʼlim-tarbiya berish, shuningdek, shaxsning sogʻlom xulq-atvor fazilatlariga ega boʻlib, ezgu va sogʻlom gʻoya hamda mafkura asosida oʻz yoʻlidan adashmay oʻz hayotini qurishi lozimligi haqida juda qimmatli fikr-mulohazalarni uchratish mumkin [3]. Muqaddas “Qurʼoni Karim”da, “Hadisi Sharif”da, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Unsurulmaoliy Kaykovus, Yusuf Xos Xojib, Alisher Navoiy va Husayn Voiz Koshifiy kabi allomalarimizning asarlarida ham shaxs kamoloti, goʻzal xulqli insonning chiroyli fazilatlarini, ezgulikka va bunyodkorlikka yoʻgʻrilgan gʻoya va mafkuralar asosida yomondan, yomon ishlardan hazar qilish, yomon ishlar qilguvchilarni toʻgʻri yoʻlga solish, sogʻlom boʻlmagan xulq egalari Olloh ham, zamon ham, jamiyat ham kechirmasligi bois, shaxsni kelajakda har xil yomon, yovuz yoʻllar, buzgʻunchi fikr va gʻoyalarga chalinmasligi uchun barkamol qilib tarbiyalash yuzasidan qimmatli fikrlarni ilgari surganlar.

Kishilik jamiyatining koʻp ming yillik tarixi barcha davrlarda ezgulik va bunyodkorlikka yetaklovchi qarashlar, gʻoya va mafkuralar bilan bir qatorda, ularga qarama-qarshi boʻlgan, inson hayotini izdan chiqarish, jamiyat va ijtimoiy tizimlarning yemirilishiga, tanazzulga yuz tutishiga zamin yaratgan buzgʻunchi



va vayronkor qarashlar, g'oya va mafkuralar ham mavjud bo'lganidan dalolat beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 26.03.2021yildagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ5040-son qarorida, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va bunyodkorlik ishlari natijasida xalqimizning ongu tafakkuri, dunyoqarashining tubdan o'zgarib borayotganligi «Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari» degan hayotbaxsh g'oya asosida tobora muxim axamiyat kasb etmoqda. Biroq, qilinayotgan barcha sa'yi – harakatlarga qaramasdan ma'naviy-ma'rifiy islohotlarga to'siq bo'layotgan muammolar ham uchrab turibdi [2].

Barchamizga ma'lumki, tarbiya va ta'limni bir-biridan alohida ajratib bo'lmaydi, bu ikki jarayon o'zaro uyg'un, uzluksiz asosda tashkil etilgandagina odobli, axloqiy fazilatlarga ega, yuksak ma'naviyatli, shu bilan birga bilimdon, zukko, ruhan va jismonan sog'lom, keng dunyoqarash va tafakkurga ega, zamonaviy kasb-hunar egasi bo'lgan vatanparvar yoshlarni yetishtirish imkoniyati oshadi.

Bugungi kunda Yangi O'zbekistonda yoshlar tarbiyasini milliy va zamonaviy asosda ilmiy-texnologik isloh qilish borasida olib borilayotgan ishlar uni bugungi kun ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ilmiy asoslangan tayanch kompetensiyalar, fazilatlar asosida shakllantirishni talab etmoqda.

Milliy tarbiyaga yangicha, tizimli yondashuv, bolada tayanch fazilatlarni kafolatli shakllantirishda uning psixologik mexanizmlarini o'rganish, mazkur masalada oila, maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta, o'rta maxsus kasb-hunar, oliy ta'lim muassasalari, mahallalarning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini to'liq yuzaga chiqarishni va ular orasida ilmiy-metodik uzviylikni yangi darajaga ko'tarishni taqozo etadi.

Adabiyotlar sharhi. Masala yuzasidan adabiyotlar tahliliga e'tibor qaratadigan bo'lsak, professor M. Quronovning "Milliy tarbiya" nomli monografiyasida qayd qilinishicha, XIX asrga kelib chet el ijtimoiy fanlarida boshqa xalqlar milliy-madaniy xususiyatlarini tadqiq qiluvchi kulturantropologiya va sotsiologiya maxsus fanlarga aylanib, "Boshqa dunyo kishisi" muammosini o'rgana boshladi. Bu aslida, boshqacha tarbiya - milliy tarbiyaning tizim, uslublari, maqsadlaridagi xususiyatlarni ilmiy nuqtai-nazardan o'rganish davri boshlanganligini anglatar edi [5].

"Boshqa dunyo kishisi"ni o'rganish taraqqiyparvar yangilik edi. U "Boshqa mamlakat, millat kishisi qanaqa?", "U o'zini o'rab olgan dunyoni, borliqni qanday idrok qiladi?", "U yaxshilik va yomonlikni qanday tushunadi?", "U o'z xatti-harakatlarida qanday mezonlarga asoslanib yo'l tutadi?" kabi savollarga

javob berish kerak edi. Odamlarning dunyo haqidagi bilimlari ortib, yangi yerlar ochilib, savdo-sotiq, munosabatlari kengaya borgani sari bu muammoga qiziqish orta bordi. Ayniqsa, Yevropada bozor iqtisodiyoti munosabatlari shakllana borishi va u bilan bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, ayniqsa mustamlakachilik davri milliy xususiyatlarni o'rganishga kuchli turtki bo'ldi. Chunki mustamlakachi, missioner, plantatorlar uchun o'z mustamlakalari - mahalliy xalqlar haqida hech bo'lmasa ibtidoiy tasavvurga ega bo'lish foydali edi.

O'zga xalqlarning milliy xarakterini o'rganish faqat mo'may foyda orttirish maqsadi bilan cheklanib qolmadi. Chunki mustamlakachilar va mahalliy xalqlar milliy qadriyatlar orasidagi tafovutni yechish ilmiy muammoga ham aylanib ulgurgan edi. Zero, ovropolikning boshqa millatlar haqidagi tasavvurida noovro'poliklar shaxs emas, balki qandaydir aqlga zid afsonalar, mistika ta'sirida yashovchi individlar, deb idrok qilinar edi. Chunki Osiyoliklar va Afrikaliklar o'zlari uchun milliy, ovro'poliklar uchun g'alati, axloq-odob, urf-odat, an'analarga rioya qilar edilar. Ikkinchi tomondan mahalliy xalqlar uchun ovro'poliklarning xatti-harakatlari, odob-axloqi, urf-odatlar g'alati ko'rinar edi.

Tadqiqot metodologiyasi va empirik tahlil. Mamlakatimizda bugungi globallashuv jarayonida yoshlarni milliy qadriyatlar asosida intellekti yuqori va vatanparvar qilib tarbiyalashga katta ahamiyat qaratilmoqda.

Qadriyat - voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiyaxloqiy, madaniy ma'naviy ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llanadigan tushuncha. Inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan barcha narsalar, masalan, erkinlik, tinchlik, adolat, ijtimoiy tenglik, ma'rifat, haqiqat, yaxshilik, go'zallik, moddiy va ma'naviy boyliklar, an'ana, urf-odat va boshqalar Qadriyat hisoblanadi. Ijtimoiy fanlarning qaysi sohasida Qadriyatga doir tadqiqot olib borilgan bo'lsa, bu tushunchaga shu jihatdan ta'rif berishga intilishgan.

Natijalar. Har bir mamlakatda amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiya tizimi negizida muayyan maqsadlar yotadi. Istiqloq vazifalari esa bugungi kunda ta'lim-tarbiya tizimi mazmunini yangilashni talab etmoqda. Bu esa ijtimoiy tarbiya bilan oilaviy tarbiyani mazmunan uzviy bog'lash zaruratini keltirib chiqaradi. Bu vazifalar ushbu sohaning ustuvor vazifalariga aylandiki, ularning amalga oshirilishi pedagogikani oilaviy tarbiya va ijtimoiy tarbiya bilan uzviy bog'lashning yangi usul va yo'llarini izlab topish, bu yo'lda ilmiy-amaliy izlanishlar olib borishni taqozo etadi [6].

Hozirgi davrda milliy va ma'naviy qadriyatlarining inson va jamiyat hayotidagi ahamiyatining oshib borishi, yoshlar kamolotidagi o'rni barchamiz uchun muhim ahamiyat kasb etmoqda. Biz yuqorida milliy-ma'naviy, madaniy, ta'lim-tarbiya, axloq kabi qadriyat turlari, uning mohiyati, inson tafakkuri, dunyoqarashiga



ta'siri, komil inson tarbiyasidagi o'rni kabi masalalarni imkon qadar yoritishga harakat qildik. Shu o'rinda yoshlar tarbiyasini ma'naviy qadriyat va milliy istiqloq mafkurasi tamoyillari bilan uyg'unlikda olib borish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Qadriyat – uning mohiyati va mazmuni, milliy qadriyatlarning namoyon bo'lish shakllarini va ularning asosiy xususiyatlarini o'z ichiga qamrab olgan. Shuningdek, qadriyat mavzularida O'zbekiston tarixini sharqona qadrlash, ularga vatanparvarlik ruhida munosabat bildirish, yoshlar ongida istiqloq va qadriyatlarga nisbatan qarashning ijobiy tomonga o'zgarishi, milliy qadriyatlarni asrash va umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unligini ta'minlash juda muhimdir.

Xulosa va munozara. Demak, yoshlar uchun tayyorlangan ma'naviy-mafkuraviy tadbirlarda ma'naviy-axloqiy qadriyatlardan foydalanish, ularni yig'ib to'plash, kitob ustida ishlash va boshqa shakl, metod va vositalar asosida hayotdagi namunalarga tayanildi. Zero, ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llanilgan shakl, metod va vositalar ma'naviy-ma'rifiy ishlarni amalga oshirishda yoshlar bilimni boyitishga va ta'lim-tarbiyani ular bilan uyg'un holda tashkil etishga yordam berdi. Bu esa quyidagi holatlarda namoyon bo'ldi: - yoshi kattalar, ustoz-murabbiylarga hurmat-ehtirom, g'amxo'rlik kabi yuksak ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni yanada rivojlantirish. - mehnat an'analarini hozirgi davrga mos holda rivojlantirish orqali mehnat tarbiyasi va hunar o'rgatishda avlodlar an'anasini davom ettirish. - o'zbek xalqining mehmondo'stlik an'analarini hozirgi kunda diplomatik aloqalar, bag'rikenglik, hamjihatlik, do'stlik, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik tamoyillari darajasiga ko'tarish. - talaba-yoshlarni hayot va turmush estetikasini avaylab-asrashga yo'naltirish orqali ularning axloqiy-estetik qarashlarini xalq amaliy san'ati, musiqasi hamda xalqimizning milliy me'morchilik va boshqa san'at namunalari bilan uyg'un rivojlantirish. - yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish;. Ma'naviy-mafkuraviy tarbiya tizimi va qadriyatlarimiz – urf-odat va an'analarimizni o'rganish va zamon ruhiga mos ravishda davom ettirish. Xullas, ma'naviy-mafkuraviy ishlar katta tarbiyaviy imkoniyatlarga ega bo'lib, ular ta'lim-tarbiyada uyg'unlashib borar ekan, bu jarayon yoshlar tarbiyasida samarali natijalar berishi muqarrar.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 28 iyuldagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi PQ-3160-sonli, 2019 yil 3 maydagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar

to'g'risida"gi PQ-4307-son va 2021 yil 26 martdagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5040 qarorlari.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrda "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1059-sonli qarori/<https://lex.uz/docs/4676839>

3. Shavkat Mirziyoev. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. "O'zbekiston", 2016. B.324,486, 487.

4. Jabborov X.X. "Yoshlarda milliy tarbiya shakllanishining psixologik qonuniyatlari". Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences.VOLUME 2 | ISSUE 1 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor. SJIF 2021: 5.423.

5. Tarbiya ensiklopediyasi. 2010. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", B.509, 510

6. Tillaeva G., Yusupov Q., Boboev N., Xaldibekova F., Yusupov A. Shaxs ma'naviyatini shakllantirish omillari va vositalari. T: "Falsafa va xuquq instituti" 2009. B.12,16

7. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. (Darslik.) – T.: "Iqtisod-Moliya", 2011. –418-b.

8. Azizxo'jaeva N.«Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat». TDPU-2003.

РЕЗЮМЕ

Mazkur maqolada talabalarning milliy qadriyatga asoslangan tarbiyaning kreativ g'oyallari, pedagogik tahlilari haqidagi fikrlar ilgari surish masalasi yoritilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье освещается вопрос представления представлений студентов о творческих идеях и педагогического анализа образования на основе национальных ценностей.

SUMMARY

In this article, the issue of presenting students' ideas about creative ideas and pedagogical analyzes of education based on national values is highlighted.